

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA OMMAVIY
AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Xudoyberdiyev Anvarjon Allabergan o'g'li

ANNOTATSIYA

Ommaviy axborot vositalarining o'rni, bugungi holati, huquqiy asoslari, asosiy xususiyatlari, ushbu faoliyatni takomillashtirishga bag'ishlangan olimlar, mutaxassislar va amaliyot hodimlarining fikrlari, mavzuga doir maxsus adabiyotlar, ushbu faoliyatni takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan omillar, natijalarni ko'rsatuvchi statistic ma'lumotlar, ilg'or xorij tajribasi o'rganilib tahlil qilingan hamda bu borada erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash va faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ANOTATION

The role of the mass media, its current status, legal bases, main features, opinions of scientists, specialists and practitioners dedicated to the improvement of this activity, special literature on the topic, factors that prevent the improvement of this activity, statistics showing the results Data, advanced foreign experience were studied and analyzed, and proposals and recommendations were developed to strengthen the positive results achieved in this regard and further improve the activity.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, omma, ochiqlik, davlat organlari, mansabdor shaxslar, huquqiy ong.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishida jamoatchilik nazorati juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat organlari rahbarlarining qonunlarga qat'iy amal qilib, o'z zimmlaridagi vazifa va majburiyatlarni mas'ulyat bilan ado etishlarida ayniqsa ommaviy axborot vositalarining ta'sir doirasi nihoyatda katta.

Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi illatlarni fosh etish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yo'lida o'ziga xos faollik ko'rsatmoqda. Demak, har bir jabhada jamoatchilik nazoratini

ta'minlashda fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan bo'lgan ommaviy axborot vositalarining o'rnini yanada oshirish maqsadga muvofiq. Negaki, jamiyatimizda kechayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga nisbatan mas'uliyat, tashabbuskorlik, daxldorlik hislari har bir inson ongida shakllanishi kerak. Zero, biz har qanday qonun buzilishi holatiga murosasiz bo'lsak, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlariga ko'pchilik bo'lib baho bersak, o'z fikr-mulohazalarimizni emin-erkin bayon etsak, shundagina chinakam qonun ustuvorligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil Matbuot va ommaviy axborot vositalari hodimlariga yo'llagan tabrigida Ommaviy Axborot Vositalaridagi tanqidiy chiqishlarga vazirlik va idoralar, hokimliklarning axborot xizmatlari orqali tezkor munosabat bildirish amaliyoti shakllanayotganligini, buning tasdig'ini davlat idoralari tomonidan tanqidiy materiallarga javob qaytarish ko'rsatkichi 2018 yilda 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yil yakuniga ko'ra qariyb 90 foizga yetgani misolida ham ko'rish mumkinligini qayd etib o'tgandi.

Ta'kidlash lozimki, haqiqatan ham huquqbuzarliklarning oldini olishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Jamiyatdagi mavjud muammolardan tortib qonun buzilishigacha bo'lgan holatlarni aniqlash va omma e'tiboriga havola etish yuzasidan ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ham fikrimizga dalil yasaydi. Xususan, so'nggi yilda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, blogerlar korrupsiyaga qarshi kurashishda faollashganini, turli sohalarda davlat organlari mansabdor shaxslarining korrupsiyaviy qilmishlari to'liq fosh qilinishida ularning hissasi katta bo'lganligini e'tirof etish mumkin.

Albatta, yuqoridagidek ko'rinishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ommaviy axborot vositalari vakillari o'z faoliyatini bekamu ko'st amalga oshirishi, barcha ma'lumotlarning ular tomonidan ochiqlik va oshkora omma e'tiboriga yetkazilishida ularning huquq va manfaatlari kafolatlanishi muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, Bosh prokuratura tomonidan ishlab chiqilgan Jinoyat kodeksi loyihasining 184-moddasida jurnalistning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish, ya'ni, uni biror-bir axborotni tarqatishga yoki tarqatmaslikka majburlash maqsadida o'z xizmat mavqeyidan foydalanib, jurnalistga yohud uning yaqin qarindoshiga zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish uchun jinoiy javobgarlik belgilanmoqda. Ushbu normaning ahamiyati shundaki, davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan jurnalistlarning faoliyatiga noqonuniy aralashish, xususan, ularga zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitganlik harakatlari sodir etilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilish ko'zda tutilgan. Ommaviy axborot vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma faqat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi ommaviy axborot

vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi. Bunda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ommaviy axborot vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi shart. Ommaviy axborot vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak. Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish ro'yxatdan o'tkazuvchi organning arizasi asosida sudning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Muassis ommaviy axborot vositasining chiqarilishini tahririyat ustavida (nizomida) yoki muassis va tahririyat o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda to'xtatib turish yoki tugatishga haqlidir. Muassis ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin o'z qarori haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organni uch kun ichida yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor etishi shart. Mazkur xabarnoma ushbu ommaviy axborot vositasi chiqarilishining to'xtatib turilishi yoki tugatilishidan oldingi so'nggi chiqarilishlaridan biriga joylashtirilishi kerak. Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini sud qaroriga ko'ra to'xtatib turish ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan tahririyatga nisbatan chiqarilgan ogohlantirishga sabab bo'lgan qonunchilik buzilishi takroriy yozma ogohlantirishdan keyin bir oy ichida bartaraf etilmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini qayta boshlash ro'yxatdan o'tkazuvchi organ aniqlagan qonunchilik buzilishlari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar muassis va (yoki) tahririyat tomonidan sudga taqdim etilganidan keyin sud qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Shu o'rinda, fuqarolik jamiyatini takomillashtirish ularda jamiyat hayotiga daxldorlik hissini uyg'otish bugungi kunning, zamonning talabi shuni taqozo etmoqda. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda fuqarolik jamiyatini qurish zaruriyatga aylanib borayotganligi fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va aholi Rossiya Federatsiyasida zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omilga aylandi, demokratiyani rivojlantirish, fuqarolarning huquq erkinliklarini himoya qilish qiyin ekanligiga jahonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ko'rsatib turibdi. Ana shunday o'zgarishlarni amalga oshirish va aholining turmush darajasini yaxshilash davlat muassasalari va jamoat organlari hamda aholi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni va hamkorlik samaradorligini oshirish, avvalo iqtisodiyotning rivojlanishi, aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq, milliy va mintaqaviy muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishda ulaning hissasi kattadir.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishida jamoatchilik nazorati juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat organlari rahbarlarining qonunlarga qat'iy amal qilib, o'z zimmalaridagi vazifa va

majburiyatlarini mas'ulyat bilan ado etishlarida bu institutning ta'sir doirasi nihoyatda yuqori. So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi illatlarni fosh etish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholining huquqiy ongini va madaniyatini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yo'lida faollik ko'rsatmoqda. Demak, har bir jabhada jamoatchilik nazoratini ta'minlashda fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan bo'lgan ommaviy axborot vositalarining o'rnini yanada oshirish maqsadga muvofiq. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2018 yil 18 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonun 3 ta yangi modda bilan to'ldirilib, 11 ta moddaga o'zgartirish kiritildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, nafaqat huquqbuzarliklar va jinoyatlar, balki jamiyatda mavjud muammolarni omma e'tiboriga yetkazishda faollik ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalari vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash pirovard natijada jamiyatda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladi. Huquqbuzarliklarning bugungi bosqichida, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hisobot berish tizimining yaratilishi, har haftaning payshanba kunlari **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”** deb e'lon qilinishi, qolaversa, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat, hududiy va boshqa dasturlarning hamda samarali profilaktik chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va ommaviy axborot vositalari vakillarining hamkorlikda ishlash imkonini berdi.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda ommaviy axborot vositalarining o'rnini tashkil etish samaradorligini oshirish bo'yicha ilgari surilayotgan takliflar va tavsiyalar huquqbuzarlikning sodir etilish sabablari hamda unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish imkoniyatini kengaytirishga, mexanizmini takomillashtirishga, fuqarolarning mas'ulyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR RO'YXATI QONUNLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014 yil 14 maydagi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonun // Toshkent sh.; 2016 yil 116 may; O'RQ-407-son // URL: <http://www.lex.uz>.
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 30 oktabrda qabul qilingan.

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
2. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
3. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta'lim portali).
4. <http://wikipedia.org> (Wikipedia ochiq entsiklopediasi).
5. <http://www.uz> (Milliy qidiruv tizimi).
6. <http://www.google.ru> (Google qidiruv tizimi).

USLUBIY QO'LLANMALAR

1. Ichki ishlar organlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatini tashkil etish: Darslik / I. Ismailov, M. Z. Ziyodullaev, J. S. Muxtorov va boshq.; Mas'ul muharrir prof. I. Ismailov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011. – 380 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (2015 yil 12 mart).